



Dastlabki ma'lumotlar

2020– yilning yanvar – sentabr oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 11751,3 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar– 11524,7 mlrd. so'mni (104,1 %), o'rmon xo'jaligi– 88,0 mlrd. so'mni (101,9 %), baliqchilik xo'jaligi– 138,6 mlrd. so'mni (145,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumi hajmining taqsimlanishi (%)



2020– yilning yanvar– sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,1 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 0,7 % – o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 % – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Urganch (1349 mlrd. so‘m) va Shovot (1244 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xiva (31 mlrd. so‘m), Urganch shaharlari (251 mlrd. so‘m) va Tuproqqa'l'a tumanini (261 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (104,4 %) yuqori o‘sish sur’atlari Tuproqqa'l'a (110,2 %), Yangibozor tumani, Xiva shahri (108,9 %) va Bog`ot (107,7%) tumanida kuzatildi. Urganch shahri (100,8 %), Xiva (100,9 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar– sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 11452,9 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 4515,0 mlrd. so'mni (104,1 %), chorvachilik mahsulotlari – 6937,9 mlrd. so'mni (104,0 %) tashkil qildi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik
mahsulotlarining ulushi**



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida xo'jalik toifalarining ulushi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,8 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 20,7 % – fermer xo'jaliklariga, 1,5 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

2020-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumanida (31,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xiva shaharlarida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xonqa tumanida (3,1 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Yangiariq tumanida (17,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal'a tumanida (67,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Tuproqqal'a (0,2 %), Hazorasp tumanlarida (0,5 %) qayd etildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




Dehqonchilik


2020– yilning yanvar – sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4515,0 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 39,4 % ni tashkil qildi.

Don jami


Hajmi, ming t.



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



O'sish sur'ati



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi amalga tashkilotlar



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan jami 329,7 ming t. don (2019– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,3 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Xorazm viloyati bo'yicha
jami don yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming t.




O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 101,4 ming t. kartoshka (2019– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 4,1 % ga ko'p) etishtirildi. Kartoshka etishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili kartoshka etishtirish umumiylajmidan 89,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini

ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 392,5 ming t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 6,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili sabzavot ishlab chiqarish umumiyligi hajmidan 87,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha
sabzavotlar
yetishtirish hajmi, t.




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 105,5 ming t. poliz mahsulotlari (2019– yilning yanvar– sentabrga nisbatan 11,0 %) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha
poliz mahsulotlari **yetishtirish**
hajmi, tonna




Mevalar

Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 122,7 ming t. mevalar (2019– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 3,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha
mevalar yetishtirish
hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 31,8 ming t. uzum (2019– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 3,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili uzum ishlab chiqarish umumiylajmidan 75,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Xorazm viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna



Chorvachilik



2020– yilning yanvar–sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6937,9 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiylajmiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 60,6 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora–tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to’ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 126,9 ming t. go’sht (2019– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 3,1 % ga ko‘p), 884,7 ming tonna sut (4,4 % ga ko‘p), 408,0 mln. dona tuxum (8,3 % ga ko‘p), 7,3 ming dona qorako'l teri (7,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarilgan, 7909 t. baliq (44,0 % ga ko‘p) ovlangan.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 126,9 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 3,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahvil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Xorazm viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, t.**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● **Fermer xo'jaliklari**

● **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**


● **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 884,7 ming t. sut (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 4,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,3% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi, t.




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 408,0 mln.dona tuxum (2019– yilning yanvar– sentabrga nisbatan 8,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiylaj hajmidan 65,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi,tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7909,0 tonna (2019– yilning yanvar– sentabrga nisbatan 44,0 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiyligi hajmidan 56,2 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Xorazm viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, t.



Chorva mollari va parrandalar bosh soni



2020–yilning 1–oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,6 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 12,3 % fermer xo'jaliklariga, 87,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 % iqishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Otlar umumiyligini sonidan 10,5 % fermer xo'jaliklariga, 89,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 11,4 % fermer xo'jaliklariga,

65,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 23,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qora mollarning umumiyl bosh soni 896,7 mingtaga etdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 38,1 mingtaga (4,4 %) ko‘paydi.


2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar






**Xorazm viloyati
bo'yicha *yirik shoxli*
qoramollarning umumiyligi
bosh soni, ming bosh**


2020– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiyligi bosh soni 340,4 mingtaga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,8 mingtaga (1,7 %) ko'paydi.




Sigirlar


Soni, mingbosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2020– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 93,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.



Xorazm viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumiyl bosh soni,
ming bosh




2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 434,1 mingtaga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilarni bosh soni – 16,0 mingtaga (3,8 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilarni


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon yordamchi xo‘jaliklari (shaxsiy


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarni bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili jami qo‘y va echkilarning 87,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



Xorazm viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumi bosh soni,
ming bosh




2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiyl bosh soni 5,0 mingtaga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 136 boshga (2,8 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O’sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 89,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



**Xorazm viloyati
bo‘yicha otlarning
umumi bosh soni, bosh**




2020–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5750,7 mingtaga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 26,0 mingtaga (0,5%) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g’risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 65,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g’ri kelishini qayd etish lozim.



**Xorazm viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumi bosh soni,
ming bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 62-224-64-96
- 71-202-78-89